

O'SMIRLARDA VIKTIM XULQ NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ps.f.f.d.(PhD) Atamuratova Zamira Ikramovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU, zamira.a@urdu.uz

Annotatsiya. Maqolada o'smirlik yosh davridagi sinaluvchilarda jabrlanuvchining jabrlanuvchi xatti-harakatlarining turli shakllarini amalga oshirishga moyilligini o'lchash uchun mo'ljallangan Viktim xulqni aniqlash testi natijalari keltirib o'tilgan. Shaxsning qurbonlik pozitsiyasiga mos keladigan, shaxsning o'ziga xosligining tarkibiy shakllanishi bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarni tashxirlashga mo'ljallangan ushbu metodika o'smirlardagi jabrlanuvchi va qurbon pozitsiyasini o'rganishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: o'smir, viktim, viktim xulq, viktimologiya, jabrlanuvchi xulq.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning o'zini o'zi anglashi, turli muammoli vaziyatlarda javobgarlik hissini tuyishi, irodaviy sifatleri rivojlantirilishi, mehnatsevar, iymonli va insofli, yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bog'liq deb hisoblovchi shaxs sifatida tarbiyalashning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Bu borada «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son qarorida ham yoshlar ma'rifatini yuksaltirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Bunda jamiyatimiz a'zolari, xususan, o'quvchilarda jabrlanuvchi yoxud viktim xulq namoyon bo'lishini o'rganish orqali yoshlarda javobgarlik hissini oshirish masalasini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

Viktimologiya - shaxsni jabrlanuvchiga aylantirishga moyillikni yaratadigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlar va belgilarni o'rganuvchi soha hisoblanib, u viktim xulq nazariyasini izohlab beradi. Viktimologiya borasidagi qarashlar dastlab H.Gentig va B.Mendelson tomonidan yoritib berilgan. Bugungi kunda viktimologiya o'rganish predmeti hisoblangan viktim (jabrlanuvchi) xulq nazariyasi shaxsning ijtimoiy faolligini o'rganish maqsadida qo'llaniladi [2]. Biz esa o'z tadqiqotlarimiz doirasida o'smirlarda passiv hayot pozitsiyasiga moyillik xususiyatlarini o'rganish uchun viktim xulq nazariyasi asosida ishlab chiqilgan O.O.Andronnikova «Jabrlanuvchi xulqni aniqlash» so'rovnomasini tanlab oldik.

Jabrlanuvchining xulq-atvorini o'rganish metodikasi o'smirlarning jabrlanuvchi xatti-harakatlarining turli shakllarini amalga oshirishga moyilligini o'lchash uchun mo'ljallangan testi shaxsning qurbonlik pozitsiyasiga mos keladigan, shaxsning o'ziga xosligining tarkibiy shakllanishi bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarni tashxirlashga mo'ljallangan [3].

Ushbu metodikada sinaluvchilarga 86 ta hukm taqdim etiladi. Sinaluvchi o'zi ma'qul ko'rgan hukmlarga "qo'shilaman", aksincha o'zlariga mos bo'lmagan hukmlarga "qo'shilmayman" deya javob berishlari so'raladi. Metodika yordamida biz jami 7 ta xarakter xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Bular asosan: javoblarning ijtimoiy nafliligi, agressiv xatti-harakatlarga moyillik, o'ziga zarar yetkazishga moyillik, gipersotsial xulq-atvorga moyillik, qaram va nochor xatti-harakatlarga moyillik, tanqidiy xatti-harakatlarga moyillik va jabrlanuvchi xulq pozitsiyasi shkalalari hisoblanadi. Biz asosan o'smirlardagi jabrlanuvchi xulq pozitsiyasi namoyon bo'lishini aybdorlik hissining yetishmasligi oqibati sifatida izohlab o'tganmiz. Bunga ko'ra, jabrlanuvchi xulq pozitsiyasi quyi darajada ifodalansa, sinaluvchi tez-tez tanqidiy vaziyatlarga tushib qolmasligi yoki u xavfli vaziyatlardan qochish imkonini beradigan himoya xatti-harakatlar rejasini ishlab chiqadi. Biroq qurbon bo'lgan xatti-harakatlarga ichki tayyorlik bo'lishi lozim. Normadan yuqori darajada esa sinaluvchining sog'lig'i va hayoti uchun ko'pincha yoqimsiz yoki hatto xavfli vaziyatlarga tushib qolishini anglatadi. Bunday holatda ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkor, o'ylamasdan harakat qilish istagi oshib ketishi kuzatiladi. Quyida jadvalda o'smirlarda yuzaga keladigan jabrlanuvchi xulq - "Qurbon" pozitsiyasi namoyon bo'lish xususiyatlari keltirib o'tildi.

«Jabrlanuvchi xulqni aniqlash» so'rovnomasi yosh davrlari bo'yicha natijalar tahlili (Mann Uitni mezoni asosida n=577)

Shkalalar	Yoshi	N	O'rtacha rang	U	P
Javoblarning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi	Kichik o'smir	249	279,55	38482,500	0,225
	Katta o'smir	328	296,18		
	Jami	577			
Agressiv xatti-harakatlarga moyillik	Kichik o'smir	249	263,25	34425,000	,001**
	Katta o'smir	328	308,55		
	Jami	577			
O'ziga zarar yetkazishga moyillik	Kichik o'smir	249	283,32	39420,500	0,472
	Katta o'smir	328	293,32		
	Jami	577			
Gipersotsial xulq-atvorga moyillik	Kichik o'smir	249	283,26	39406,000	0,465
	Katta o'smir	328	293,36		
	Jami	577			
Qaram va nochor xatti-harakatlarga moyillik	Kichik o'smir	249	297,13	38810,500	0,304
	Katta o'smir	328	282,82		
	Jami	577			
Tanqidiy xatti-harakatlarga moyillik	Kichik o'smir	249	293,92	39610,000	0,533
	Katta o'smir	328	285,26		
	Jami	577			
Jabrlanuvchi xulq pozitsiyasi	Kichik o'smir	249	258,80	33315,500	0,000**
	Katta o'smir	328	311,93		
	Jami	577			

Izoh: **p≤0,01

Tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra, javoblarning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=38482,500$; $p \geq 0,05$). Ya'ni javoblarning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi har ikkala yosh davriga ham bog'liq bo'lmas ekan.

Agressiv xatti-harakatlar shkalasi bo'yicha aksincha kichik va katta o'smirlar orasida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($U=34425,000$; $p \leq 0,01$). Mazkur matematik-statistik tahlilda katta o'smirlarda kichik o'smirlarga qaraganda aggressiv xatti-harakatlarga moyillik yuqori bo'lar ekan.

O'ziga zarar yetkazishga moyillik shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=39420,500$; $p \geq 0,05$). Shaxsda o'ziga zarar yetkazishga moyillikning kuzatilishi psixoanalitik A.Louen tomonidan xarakterdagi aksentuatsiya belgisi sifatida ta'riflangan [4]. Shu bois biz tadqiqotimiz vazifalari doirasidan chiqmagan holda ushbu ko'rsatkichni yoshga bog'liq o'zgarishlarini kuzatmaganligimizni qayd etish mumkin.

Gipersotsial xulq-atvorga moyillik shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=39406,000$; $p \geq 0,05$). Gipersotsial xulq-atvorga moyillik xususiyati yosh davriga xos emas, balki ijtimoiy faktor hisoblanar ekan.

Qaram va nochor xatti-harakatlarga moyillik shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=38810,500$; $p \geq 0,05$). Qaram va nochor xatti-harakatlar tendensiyasi ham ijtimoiy turmush tarzi va shaxs individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, yosh xususiyatlariga xos o'zgarishlar aniqlanmadi.

Tanqidiy xatti-harakatlarga moyillik shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=39610,000$; $p \geq 0,05$). Tanqidiy xatti-harakatlarga moyillik shaxs kognitiv sohasi rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq holda o'zgarib boradigan jarayon hisoblanadi.

Amalga oshirilgan qurbonlik shkalasi bo'yicha kichik va katta o'smirlar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($U=33315,500$; $p \leq 0,01$). Katta o'smirlarda kichik o'smirlarga qaraganda amalga oshirilgan qurbonlik ko'rsatkichi yuqori bo'lar ekan. Mazkur ko'rsatkich tahlilida yuqorida keltirilgan aybdorlik hissining kichik o'smirlarga nisbatan katta o'smirlarda past bo'lishi bilan bog'lash mumkin. Chunki shaxsning qurbon pozitsiyasida bo'lishi unda aybdorlik hissini tuyishdan himoyalashga olib keladi. Shuningdek, egosentrik xulq-atvorga moyillik ko'rsatkichi ham shaxsda o'zini ayblash emas, balki boshqalarni ayblash xususiyatini tarbiyalaydi. Shu bois ham katta o'smirlarda o'zini qurbon pozitsiyasida tutish yuqori bo'lar ekan.

Xulosa qilib aytganda, jabrlanuvchi xulq pozitsiyasi shakllangan kishilar turli muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda hech qachon o'zlarini ayblamasliklari, balki boshqalarni ayblashni ma'qul ko'rishlari, ularda javobgarlik hissi yetishmasligi

aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, o‘smirlarda jabrlanuvchi xulq pozitsiyasini korreksiyalash orqali kelajakda jamiyatga foydasi tegadigan yosh avlodni tarbiyalash maqsadiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori <https://lex.uz/docs/3864155>
2. Бантышева О.А. Взаимозависимость с эмоциональным интеллектом. Виктимное поведение подростков / О.А. Бантышева // Вестник Государственного педагогического университета им. Шевченко 2014. С. 25-30.
3. Андронникова О. О. Формирование зависимого поведения как результат реализации виктимного потенциала личности. Новосибирск: НГПУ, 2015
4. Фрейд З. Психопатология обыденной жизни //Психология бессознательного: Сп. произведений. – М.: Просвещение, 1990. 202-309ст.